O‘ZBEKISTON QIShLOQ HO‘JALIGI VAZIRLIGI

QIShLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYaLAR MILLIY MARKAZI

AKADEMIK MAXMUD MIRZAYEV NOMIDAGI BOG‘DORChILIK, UZUMChILIK VA VINOChILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

DALA CHETLARIDA MEVALI BOG‘ BARPO QILISh VA YETIShTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI BO‘YICHA TAVSIYALAR

TOShKENT – 2025

Ushbu tavsiya dala chetlarida mevali bog‘larni barpo qilish hamda ekishga tavsiya etilgan meva navlarining biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ko‘chatlarni ekish uchun tuproqqa ishlov berish, yerni ekishga tayyorlash, o‘suv davrida parvarishlash texnologiyalarini qo‘llash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash hamda hosilini yig‘ib-terib olishgacha bo‘lgan agrotexnik tadbirlar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Mualliflar: b.f.n., A.S.Esanqulov, q.x.f.f.d., A.A.Qosimov, q.x.f.d., X.R.Abdullayeva, q.x.f.n., G‘.T.Parpiev, G.B.Temirova.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu maydonlardan unumli foydalanish orqali 337 ming tonna qo‘shimcha mahsulot olish imkoniyati bor.

Yurtimizda shunday fermer xo‘jaliklari borki, faqat dala va yo‘l chetlariga, ariq, suv bo‘ylariga ekilgan olcha, olma, anor, uzum, bodom, jiyda kabi mevalardan katta miqdorda hosil yig‘ib olmoqda. Ular yuqori sifatli hosili berishi bilan birga, ko‘chalarga fayz, dalalarga xusunkorlik baxsh etayapti. Ularning yana bir qulaylik tomoni shundaki, bu mevalar tog‘da ham, dashtda ham, qumda ham o‘sadi, rivojlanadi va meva beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassis-olimlari tomonidan Respublikamizning barcha regionlari misolida har bir tumandagi hududlarning tuproq-iqlim va suv ta’minoti sharoitini hisobga olgan holda dala chetlarida yetishtiriladigan serdaromad qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish bo‘yicha mazkur tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu tavsiyanomada fermer xo‘jaliklari borki, faqat dala va yo‘l chetlariga, ariq, suv bo‘ylariga ekilgan olcha, olma, anor, uzum, bodom, jiyda kabi mevalarni ekish, ularning agrotexnikasi, sug‘orish tadbirlari va ularni parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Mazkur tavsiyanoma barcha yerdan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Tavsiyanomadan nafaqat dehqon, fermer xo‘jaliklari, balki agroklasterlar, qishloq xo‘jaligi soha mutaxassislari keng foydalanishlari mumkin.

Tavsiyanoma Akademik Maxmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan tayyorlangan hamda 2025 yil 04 yanvardagi dagi Ilmiy kengashining 1-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan bo‘lib, mutaxassislar, fermer xo‘jaligi rahbarlari va keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

Meva-sabzavotchilik tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushi ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini tashkil etadi. Quyosh taftiga to‘yinib pishgan meva va sabzavotlarimizga jahon bozorida talab yuqori. So‘nggi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham jahon bozoriga chiqish imkonini yaratadi. Biroq hali hal etish lozim bo‘lgan masalalar ham yo‘q emas. Shu asosida meva-sabzavotchilikni respublikamiz bo‘ylab ko‘paytirish, soxani yanada rivojlantirish va tadbirkorlar, fermer-xo‘jaliklarini bu borada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Misol tariqasida prezident farmonlari va qarorlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-son Farmoni hamda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, jumladan, “Yeksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-52-son Qarorlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-oktabrdagi “2022-2023-yillarning qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha muassasalarining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 587-son qarorida hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda sohani rivojlantirish istiqbollari va respublikamizda yangi mevali o‘simliklar turlarini kengaytirish, meva-sabzavotchilik sohasida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko‘rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o‘zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va eksport hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 dekabrdagi PQ-465-sonli qarorining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari tomonidan dala chetlari xamda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari samarali yetishtirilishini tashkil qilish” bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining 7-bandida: “har bir tumandagi hududlarning tuproq-iqlim va suv ta’minoti sharoitini hisobga olgan holda dala chetlarida yetishtiriladigan serdaromad qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish bo‘yicha tavsiya ishlab chiqish”, bunda mahalliy sharoitdagi imkoniyatlardan kelib chiqib, sizot suvi yaqin yerlarga: olcha, olxo‘ri, behi, jiyda, tut, terak, oshqovoq, supurgi, shirin jo‘xori, malina, suv tanqis yerlarga: qizilmiya, uzum, bodom, anor, moyli (kunjut, raps) va dukkakli (zira, no‘xat, loviya, mosh) ekinlarga qaratish kerakligi alohida e’tiborga olingan.

Bugungi kunda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Respublikadagi fermer xo‘jaliklarining dala chetlarida 58,9 ming gektarga yaqin maydonlar yer egalari tomonidan to‘liq foydalanilmayotgani aniqlangan.

1. HUDUDLARNING TUPROQ-IQLIM ShAROITLARI VA ULARGA MOS EKISh TAVSIYa ETILADIGAN MEVALI DARAXT TURLARINING MANSUBLIGI

ShIMOLIY MINTAQA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi qizilqum cho‘lining shimoli g‘arbiy, Ustyurt platosining janubi-sharqiy qismi va Amudaryo deltasida joylashgan. Poytaxti Nukus shaxri. Tarkibida 16 ta tuman, 12 ta shahar, 14 ta shaxarcha bor. Respublikaning iqlimi keskin kontinental. Yozi quruq issiq va qishi nisbatan sovuq bo‘lib, qor kam yog‘adi. Yanvar oyining o‘rtacha temperaturasi janubda – 4,9^{o}, shimolda – 7,6^{o}, iyul oyida janubda 28,2^{o}, shimolda – 26^{o}. Yillik yog‘in miqdori 110^{o}mm, asosan qish va bahor oylarida yog‘adi. Vegetatsiya davri 194-214 kun. Tuproqlari sug‘oriladigan o‘tloqi-taqir tuproqlar, sug‘oriladigan taqir-o‘tloqi tuproqlar, sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasining sug‘oriladigan mintaqasida quyidagi tuproqlar: o‘tloq-taqir, taqir-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar shakllangan. Juda kam holatlarda kichik uchastkalarda botqoq-o‘tloqi tuproqlar uchraydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan 3 ta Nukus, To‘rtko‘l va Beruniy tumanlari mavjud. Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda urug‘ mevali o‘simliklardan asosan behi, danak mevali o‘simliklardan olcha va olxo‘ri, suptropik o‘simliklardan anor, uzumning esa xo‘raki, kishmishbop hamda sharobbop navlaridan ekish tavsiya etiladi.

Xorazm viloyati. Xorazm viloyati Respublikamizning shimoliy xududida joylashganligi sababli iqlimi keskin kontenental bo‘lib, maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 78°S ga teng. Viloyat hududining qumlar bilan o‘ralganligi sababli yoz kunlari +43°S+45°S darajaga ko‘tariladi. Qish faslida eng past harorat -30°-33°S sovuqni tashkil etadi. Yozning issiq, qishning sovuq kelishi ob-havoning sutka davomida keskin o‘zgarishi, yog‘in sochinning kamligi, havoning quruqligi viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir. Tuproq-iqlim sharoitlarini noqulayligiga qaramasdan meva turlari va ajoyib navlarining mavjudligi, ulardan yuqori, mo‘l va sifatli hosil olish imkoniyatini beradi. Xorazm viloyat Urganch, Bog‘ot va Xiva tumanlari meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan. Tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib meva va uzum navlari, behining Xorazm noksimon behisi, olxo‘ri mevalari yaxshi xosil beradi.

JANUBIY MINTAQA.

Surxondaryo viloyati. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo‘lib, maydoni 20,1 ming kv/km tashkil etadi. Uning hududi quruq suptropik iqlimiy mintaqaga to‘g‘ri keladi. Viloyat hududini 37 10'— 39 02' shimoliy kenglik va 66 32'- 68 25' sharqiy uzunlik chiziqlari kesib o‘tadi. Tog‘lar shimoldan sovuq havo oqimlarini to‘sib turishi natijasida subtropik o‘simliklar o‘stirish uchun qulay iqlim sharoiti vujudga kelgan. O‘lkaning tekislik qismida yoz serquyosh, issiq va quruq, tog‘ tomon ko‘tarilgan sari harorat pasayib boradi. Qish qisqa va iliq, lekin atrofdagi tog‘larda sovuqroq bo‘ladi. Yozda o‘lkaning tekislik qismi juda isib ketadi. Iyulning o‘rtacha harorati Denovda $+28,2^0$S, Sherobodda $+32,1^0$S ga yetadi. Yozda havo harorati Termizda $+50^0$S ga ko‘tarilganligi kuzatilgan. Bu Respublikamizda qayd qilingan eng yuqori haroratdir. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtiriladigan tumanlarning sug‘oriladigan yerlari ikkita qishloq xo‘jalik mintaqasiga ajratiladi:

- Bo‘z tuproq mintaqasi -Tog‘ oldi va tog‘ tagi tekisliklaridan iborat bo‘lib, unga *Sariosiyo*, *Denov* va *Oltinsoy* tumanlari kiradi.

- Sahro cho‘l mintaqasi -Sahro past tekisliklariga *Angor* va *Termiz* tumanlari kiradi. Bu tumanlar hududida sug‘oriladigan o‘tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlar hosil bo‘lgan.

Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda urug‘ mevali o‘simliklardan asosan bexi, olcha, chilonjiyda, uzum kabi mevalar yaxshi xosil beradi va yaxshi yetishtiriladi.

Qashqadaryo viloyati. Respublikaning janubiy - g‘arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-Oliy tog‘ tizmasining g‘arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog‘lari orasida joylashgan bo‘lib, Shimoliy – g‘arbdan Buxoro, janubiy – sharqdan Surxondaryo, janubiy-g‘arb va g‘arbdan Turkmaniston, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Maydoni 28,6 ming km^2. Viloyat hududida Hisor va Zarafshon tog‘lari bo‘lib, tog‘lar bilan tekisliklar orasini adirlar egallagan. Tekislikning katta qismi g‘arbda Sandiqli va Qizilqum cho‘llari bilan tutashgan Qarshi cho‘lidan iborat. Iqlimi kontinental. Qishi nisbatan yumshoq. Yozi uzoq (155-160 kun), issiq, quruq. Sug‘oriladigan yerlarning tuprog‘i, asosan, oddiy va och bo‘z tuproqlar. Kitob-Shahrisabz soyligida ko‘proq qumoq tuproqlar mavjud. Tog‘larda balandlik mintaqalari bo‘ylab oddiy bo‘z tuproq tarqalgan. Adirlarda esa oddiy va to‘q bo‘z tuproqlar uchraydi. Bu tuproq turlari 1200 m gacha bo‘lgan baland joylarda tarqalgan. Ular tarkibida chirindi miqdori 1,5-2,5 foizga boradi. 1200-2500 m balandliklarda to‘q-jigarrang va to‘q-qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan.

Tog‘larning 2500 m. dan baland qismlarida qo‘ng‘ir to‘q-o‘tloq, to‘rfli-o‘tloq va o‘tloqi tuproqlar tarqalgan. Bog‘dorchilikka ixtisoslashgan tumanlar: Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Qamashi tumanlari. Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mevali o‘simliklardan asosan bexi, olxo‘ri, olcha, uzum, tut va terak kabi daraxtlarni ekish tavsiya etiladi.

MARKAZIY MINTAQA

Toshkent viloyati. Toshkent viloyati O‘zbekiston Respublikasining shimoliy-sharqida, Tyan-Shan tog‘larining g‘arbiy qismi va Sirdaryo daryosi oralig‘ida joylashgan bo‘lib, uning maydoni 15300 m^2 tashkil etadi. Toshkent viloyati xududining katta qismi tog‘oldi tekisligi tashkil etadi. Shimoliy va shimoli-sharqda balandligi 4299 m gacha bo‘lgan G‘arbiy Tyan-Shan tizimlari mavjud.

Toshkent viloyatining iqlimi keskin kontinental, yumshoq, qish oylari nam bo‘lib, yozi issiq va quruq. Yanvar oyining o‘rtacha xarorati – 1^0S, iyulda esa +36^0S. Yog‘ingarchilik – yiliga o‘rtacha 300 mm tashkil etadi. Tekislikdagi vegetatsiya davri 210 kunni tashkil etadi. Tuproqlari bo‘z tuproq, xududining asosiy qismi tekislikdan iborat. Viloyatda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan 8 ta Bo‘stonliq, Zangiota, Parkent, Toshkent, Oxangaron, Yangiyo‘l, Qibray, Yuqorichirchiq. tumanlari mavjud. Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda urug‘mevali o‘simliklardan behi, danakmevali o‘simliklardan olxo‘ri, olcha, subtropik o‘simliklardan unabi (chilonjiyda), yong‘oqmevali o‘simliklardan bodom, uzumning esa xo‘raki navlaridan, tut daraxtlarini ekish tavsiya etiladi.

Sirdaryo viloyati. Viloyatning umumiy maydoni 427,6 ming gektarni tashkil etib, uning qariyb 60 foizida dehqonchilik qilinadi. Viloyat hududida qish qattiq kelmaydi. Yozi yesa quruq va issiq bo‘lib, harorat +42+45°C darajagacha ko‘tariladi. Mirzacho‘l okrugining tekislikdan iborat ekanligi va janubida tog‘ tizmalarining mavjudligi natijasida iqlimi o‘ziga xosdir. Tuproqlari: okrugda geografik o‘rniga ko‘ra, och va tipik bo‘z tuproqlar tarqalgan bo‘lib, ular orasidagi chegara taxminan 450 m. mutloq balandlikdan o‘tadi. Mirzacho‘l okrugining asosiy qismini sug‘orma och bo‘z va bo‘z-o‘tloq tuproqlar egallagan. Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uzum, olxo‘ri, bexi, anor mevalari va tut, terak daraxtlarini ekish tavsiya etiladi.

Jizzax viloyati. Jizzax viloyati tuproq-iqlim sharoiti va shuningdek dehqonchilik madaniyatini turlichaligi bilan xarakterlanadi. Tuprog‘i ko‘p

yillardan buyon sug‘orib dehqonchilik qilinadigan bo‘z tuproqlardir. Yer osti sizot suvlari yaqin joylashgan qismida o‘tloq va o‘tloq botqoqli tuproqlidir. Bu tuproqlar sho‘rlanmagan, shu bilan birga ular unumdordir. Sizot suvlari 7-8 m. chuqurlikda joylashgan. Tuproq-iqlim sharoitlarini qulayligi meva turlari va ajoyib navlarining mavjudligi, ulardan yuqori, mo‘l va sifatli hosil olish imkoniyatini beradi. Ushbu xududning tuproq iqlim sharoitidan hamda mevali daraxtlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olcha, olxo‘ri, bexi, uzum, tut, terak kabi daraxtlar ekish tavsiya etiladi.

FARG‘ONA VODIYSI

Farg‘ona viloyati. Maydoni 6,8 ming km^2. Aholisi 2024-yil 1-Oktabr 4 0123 000 kishi. Tarkibida 15 tuman, 4 shahar (Marg‘ilon, Farg‘ona, Quvasoy, Qo‘qon), 5 tumanga bo‘ysunuvchi shahar (Beshariq,Rishton,Yaypan,Quva,Hamza,25 dan ortiq shaharcha, 164 qishloq fuqarolari yig‘ini bor (2019). Markazi – Farg‘ona shahri. Farg‘ona viloyati yuqori seysmik zona hisoblanadi. Iqlimi kontinental. Qishi birmuncha yumshoq, ba’zan havo juda sovib ketadi. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -3,2°C, iyulniki 28°C, eng past harorat -27,9 °C, eng yuqori harorat 42 °C. Vodiyning g‘arbida esadigan kuchli "Qo‘qon shamoli" iqlimga salbiy ta’sir etadi. Shamolning tezligi sekundiga ba’zan 35-40 metrga yetadi. Janubiy-sharqida yozda garmsel esadi. Yiliga g‘arbida 100 mm. dan (Qo‘qon atrofi) sharqiy qismida 170 mm. gacha, tog‘ yon bag‘irlarida 270 mm. gacha yog‘in tushadi, asosan, bahorda yog‘adi. Vegetatsiya davri 210—240 kun. Ushbu xududda tut, terak, anor, olcha, olxo‘ri, bexi, malina, uzum kabi mevalar ekish tavsiya etiladi.

Andijon viloyati. Andijon viloyati g‘arbdan Farg‘ona viloyati va shimoliy-g‘arbdan Namangan viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog‘ tizmalari Farg‘ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to‘sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo‘tadil. Yozi issiq, iyulning o‘rtacha harorati 27,3°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 200-250 mm. ni tashkil etadi. Tuproqlari bo‘z, qo‘ng‘ir, o‘tloqi, botqoq tuproqlar, qumtoshlardan iborat. Dengiz sathidan 450 m. balandlikda joylashgan.

Andijon viloyati xududiy geografik tuzilishiga qarab sharqiy, g‘arbiy, shimoliy va janubiy qismlarga bo‘lingan. Viloyatda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan 5 ta tuman mavjud bo‘lib, ular quyidagi: Andijon tumani, Asaka tuman, Buloqboshi tuman, Jalaquduq tuman, Xo‘jaobod tumanlari kiradi. Ushbu xududda bodom, olxo‘ri, olcha, uzum, malina, tut, terak, bexi, anor kabi daraxtlarni ekish tavsiya qilinadi.

Namangan viloyati. Namangan viloyati Markaziy Osiyoning “javoxiri” xisoblangan Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, cho‘zilgan to‘rtburchakni eslatadi xamda g‘arbdan sharqqa 130 km, shimoldan janubga 35 km dan 80 km ga qadar cho‘zilgan. Xududi 7,44 ming km^2. O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘rtasida hududi kattaligi jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Shimol, shimoliy-sharqdan Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, shimoliy-g‘arb, g‘arbdan Toshkent viloyati va Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati, janub hamda janubiy-sharqdan Farg‘ona viloyatining Qo‘qon guruxi tumanlari, Andijon viloyati bilan chegaradosh. Tuproq-iqlim sharoitlarini qulayligi meva, uzum navlari mavjudligi, ulardan yuqori, mo‘l, sifatli hosil olish imkoniyatini beradi. Ya’ni, ob-havo o‘ziga xos o‘zgaruvchan kelayotgan sharoitda meva va uzum navlarini Namangan viloyatining to‘rta tumaniga mos meva, rezavor meva, sitrus o‘simliklari, uzum turlarining tuproq iqlim sharoitlariga mos navlari tadbiq etilib mo‘l va sifatli hosil yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida maromiga yetkazib bajarish kerak. Ushbu tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqan xolatda olcha, olxo‘ri, bexi, bodom, uzum, chilonjiyda, anor, malina kabi mevalarni yetishtirish tavsiya qilinadi.

ZARAFShON VOHASI

Samarqand viloyati. Mamlakatning muhim iqtisodiy va madaniy mintaqasi Samarqand viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida, Zarafshon daryosi havzasida joylashgan. Viloyatning markaziy qismini sharqdan g‘arbga Zarafshon va Turkiston tizmalari oralig‘ida cho‘zilgan voha hamda adirlar egallaydi. Viloyatdagi sug‘oriladigan yerlarning ko‘p qismi shu qismda joylashgan. Samarqand viloyatining iqlimini 2 zonaga bo‘lish mumkin. Shimoliy va uzoq g‘arbda kontinental iqlim, qolgan qismida (markaz, janub va sharq) subtropik ichki iqlim mavjud. Taqdim etilgan ikkala iqlim ham qishi biroz sovuq bo‘lgan issiq va quruq yozni ifodalaydi. Yillik o‘rtacha temperatura +16,5°C, yanvarniki 0,2°C, iyulniki +27,0 °C. Mutloq minimal harorat −22 °C, mutloq maksimal harorat +44 °C edi. Viloyatda yiliga o‘rtacha 310-330 mm. yog‘in tushadi (asosiy qismi bahor va kuzda tushadi). Vegetatsiya davri 218-220 kun davom etadi. Adirlarning tuproq qoplamini, asosan, o‘tloq-bo‘z tuproqlar, qumloqlar va sho‘r tuproqlar tashkil etadi. Ushbu tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqan xolatda olcha, olxo‘ri, bexi, bodom, uzum, chilonjiyda, anor, malina kabi mevalarni yetishtirish tavsiya qilinadi.

Buxoro viloyati. Buxoro viloyati O‘zbekiston viloyatlari ichida, chegarasining kattaligi bo‘yicha Navoiydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Buxoro viloyati hududi asosan Qizilqum cho‘lida joylashgan. Janubi-sharqini Zarafshon

vodiysi egallagan. Shimoli-g‘arbda Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shimol va sharqdan Navoiy viloyati, janubi-sharqda Qashqadaryo viloyati, janubi-g‘arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 39,4 ming km^2. viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Maydoni 1,32 ming km/kv. Buxoro tumanida 1 shahar (Gallaosiyo) 12 ta QFY, markazi Gallaosiyo shahri hisoblanadi. Buxoro tumani yer yuzasi pasttekislikdan iborat. Buxoro tuproq-iqlim sharoiti va shuningdek dehqonchilik madaniyatini turlichaligi bilan xarakterlanadi. Buxoro viloyati bo‘yicha obikor yerlarning 94,4% turli darajada sho‘rlangan. Tuprog‘i ko‘p yillardan buyon sug‘orib dehqonchilik qilinadigan bo‘z tuproqlardir. Ushbu tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqan xolatda olcha, olxo‘ri, bexi, bodom, uzum, chilonjiyda, anor, malina, oltinsimon qorag‘at kabi mevalarni yetishtirish tavsiya qilinadi.

Navoiy viloyati. Viloyat iqlimi jihatidan Buxoro viloyatining qo‘shni tumanlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy viloyati agrometeostansiyasining ko‘p yillik ma’lumotlariga ko‘ra bu viloyatda samarali harorat yig‘indisi 2800–3200^oS ga to‘g‘ri keladi. Yilning eng issiq davrlari iyul oyiga va sovuq yanvar oylariga to‘g‘ri keladi. Navoiy viloyati tog‘ va tog‘ oldi tekislik, cho‘l hududlariga bo‘linadi. Tog‘ va tog‘ oldi tekislik hududlari dengiz sathidan 600-850 metr, cho‘l hududlari esa 400-500 metr balandlikda joylashgan. Bu hududlar biri ikkinchisidan tuproq-iqlim sharoiti va shuningdek dehqonchilik madaniyatini turlichaligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo‘jaligi maydonlari asosan Zarafshon daryosi o‘zani atrofida joylashgan bo‘lib tog‘ tizmalariga qo‘shilib ketgan. Viloyatda qishloq xo‘jaligi maydonlari asosan shu daryo suvidan foydalanib sug‘oriladi. Ushbu xududda bodom, olxo‘ri, olcha, uzum, malina, tut, terak, bexi, anor kabi daraxtlarni ekish tavsiya qilinadi.

2. DALA ChETLARIGA EKIShGA TAVSIYa ETILADIGAN MEVALI DARAXTLAR

Mevali daraxtlar turiga qarab suvli va suvsiz yerlarda yetishtiriladi. Respublikamizda aholini vitaminga boy mevalar bilan ta’minlash maqsadida maxsus mevachilik jamoa va shirkat xo‘jaliklari tashkil etilgan. Ularda olma, nok, behi, yong‘oq, handon pista, bodom, uzum va boshqa meva turlari yetishtiriladi. Lekin xo‘jaliklarda tomorqalarda yetkazilayotgan mevalar miqdorini aholini jon boshiga nisbatan hisoblasak uning yetarli daraja emasligi ma’lum bo‘ladi. Chunki har bir kishi o‘z organizmi zarur vitaminlar bilan ta’minlash uchun taxminan 80-120 kg meva ist’emol qilishi kerak. Vaholanki, hozirgi paytida respublikamizda aholi boshiga bor-yo‘g‘i o‘rtacha 20-40 kg meva yetishtirilmoqda. Demak, aholining mevalarga bo‘lgan extiyojini qondirish uchun bog‘larning hosildorligini

va maydonini ancha ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Buning uchun yashil posbonlar-ya’ni ihota daraxtzorlari bunyod etishda sharoitga qarab, mevali daraxt turlaridan ham keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Olcha. Olchaning 150 ga yaqin turi mavjud bo‘lib, asosan Osiyoda, shu jumladan, Markaziy Osiyo va Kavkazda 25 ga yaqin turi usadi. Olcha daraxt va buta shaklida o‘sadi. Daraxtsimon olcha navlarida hosil bir yillik novdalarda joylashadi. Olcha danakli mevalar ichida sovuqqa chidamlidir. Olcha har xil tuproqli yerlarda o‘saveradi, ya’ni yer tanlamaydi. Sizot suvlar yuza joylashgan yerlarda yaxshi o‘sadi, lekin sho‘r yerlarni yoqtirmaydi. Olcha o‘z bachki novdalariga va danagidan chiqqan nihollariga ulansa, ulardan o‘sib voyaga yetgan daraxtlari 20-25 yil yashaydi, past bo‘yli bo‘lib o‘sadi, kamxastakka ulangan daraxtlari sershox va baland bo‘lib o‘sib, uzoq yashaydi. Past bo‘yli bo‘lib o‘sadigan ba’zi daraxtlari ko‘p bachki novda chiqaradi.



Olxo‘ri. Olxo‘ri daraxtini yurtimizning barcha joylarida, tog‘li xududlarda xam uchratish mumkin. Olxo‘ri daraxti mevasi o‘zining nordon ta’mi, mevasining rangi va foydaliligi jixati bilan boshqa mevalardan farq qiladi. Yurtimizda yetishtiriladigan olxo‘ri mevasi yangiligida va qayta ishlangan xolda iste’mol qilinadi. Yangi uzilgan olxo‘ri mevasidan va qoqisidan tabobatda singa qarshi kasalligiga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Olxo‘ri mevalarining tarkibida vitaminlar va minerallar ko‘pligi jixatidan boshqa mevalarga qaraganda anchagina boy. Olxo‘ri daraxti unchalik baland emas, 3-4 metrgacha etadi. Olxo‘ri sovuqqa chidamli, tez xosilga kiradi, kech gullaydi. Shu sababli xar yili xosil beradi va bu uning qimmatli biologik xususiyati xisoblanadi.



Behi. Bu daraxtni respublikamizni deyarli barcha xududida uchratish mumkin. Qurg‘oqchilikka va sho‘rxoklangan yerlarda o‘sishga layoqatli. Behining bo‘yi 10 m gacha yetadi, yashashi 100 yilga boradiyu Shox-shabbalari yoyilib o‘sadi. Ildizlari chuqur joylashadi. Bu daraxtdan qurg‘oqchilikka ancha chidamliligi uchun shartli sug‘oriladigan yerlarda ham foydalansa bo‘ladi. Behi ko‘chatlarining chetki qatoriga 2,5 - 1,5 m tizimida ekilsa, hox-shabbalari yuqoriga qarab o‘sadi. Gullari hushboy, asalarichilikda foydalansa bo‘ladi. Mevasini esa yetti dordga davo deyiladi. Bu daraxt alleyalarga, ko‘chalarga, bog‘larga guruhlab, uyalab ekilsa, chiroyli manzara beradi. Uning yirik meva beradigan navlari ko‘p. Ihota daraxtzorlarida u chetki qatorda himoya vazifasini bajarish bilan birga ko‘plab meva hosili ham berishi mumkin.



Uzum. Uzumchilik respublikamiz qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri sanaladi. O‘zbekistonning qulay tabiiy - iqlim sharoiti bu yerda uzumning turli muddatlarda, ya’ni eng erta va eng kech pishadigan navlarini yetishtirish imkonini beradi. Tok yorug‘sevar o‘simlik. Shuning uchun joy tanlash, tokni tog‘ va tog‘ oldi zonalarida tegishli yonbag‘irlarga joylashtirish, qatorlarini to‘g‘ri belgilash,

tokni simbag‘azlarga ko‘tarish, ularga to‘g‘ri shakl berish, novdalarni bir tekis bog‘lash, xomtok, chekanka kabi tadbirlarga e’tibor berish zarur.
Uzumning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, dala chetlariga tok ko‘chatlarini ekish va ulardan yuqori hosil olish uchun quyidagi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.



Bodom. Mamlakatimiz xududida juda qadimdan yetishtirilib kelinadi va mevachilikda ma’lum tarixiy o‘ringa ega meva turi hisoblanadi. Mevasini mag‘zi noyob oziqaviy xususiyatga ega. Bodomni mevasi quritilgan xolda iste’mol etiladi va ulardan konditer va parfyumeriya sohasida ham keng qo‘llaniladi. Bodom kunjarasi ko‘pgina ishlab chiqarishda ishlatiladi. Mevasini quruq po‘stidan tayyorlangan ko‘mir, har xil noxush gazlarni singdirish sifatida ishlatiladi. Bodomning 50 dan ortiq turi bo‘lib, ular asosan Markaziy Osiyo, Xitoyning tog‘li xududida, Mongoliya, O‘rta dengiz mamlakatlarida joylashgan.



Tut. Tut juda qadimiy ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, tarixiy manbalarga ko‘ra 5000 ming yil ilgari Xitoyda tarqalib, so‘ngra O‘zbekistonda ham o‘stirilib mevasi iste’mol qilinishi bilan birga tut daraxtining xo‘jalik jihatidan eng ahamiyatli qismi uning bargi bo‘lib, ipak qurtining yagona ozuqasi ya’ni ipakchilik sanoati uchun asosiy xom ashyo hisoblanadi. Tut bargini tarkibida qand, oqsil, yog‘, suv,

fermentlar va turli vitaminlar mavjud. Asosiysi tut daraxti ekinlarni garmsel va sovuq shamollar ta’siridan saklashda ixota uchun eng samarali daraxt turlaridan biri xisoblanadi. Sharq tibbiyotiga asos solgan tibbiyot ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” nomli asarida Shotut va Balxitut ustida to‘xtalib, Shotut va Balxitut mevasi, bargi va boshqa a’zolarini shifobaxshligi, undan qon bosimi, qon tomir, buyrak, ichak, oshqozon, diabet, tomoq, tish milki, qonni tozalovchi va qo‘paytiruvchi sifatida ularni davolashda foydalanilganini manbalarda yozib qoldirgan.



Terak. O‘zbekiston sharoitiga mos, iqlimiga to‘g‘ri keladigan manzarali daraxtlarda biri terak xisoblanadi. Yurtimizning xar bir joylarida terak daraxtini ko‘rishimiz mumkin. Terak daraxti joy va tuproq tanlamasligi bilan ajralib turadi. Terak daraxti asosan daraxtzorlarda chetki qatorda himoya vazifasini bajaradi.



Anor. Anor asosan Kavkazorti, Eron, Afg‘oniston, Markaziy Osiyo va Misrda ko‘p tarqalgan. Mamlakatimizda anor qadimdan ekiladigan meva ekini hisoblanadi, vatani oldi Osiyo. Pishgan mevasi taribida 14-19 foiz qand, 1,2-2,6 foiz kislota, sharbatida esa shifobaxsh temir va tannin moddasi bor. Anor mevasinii yeyishdan tashqari, po‘chog‘i va ildizini qaynatib, suvidan tibbiyotda oshqozon va ichak kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Anordan olinadigan oshlovchi moddalar va limon kislotasi teri oshlashda ishlatiladi. Uning yog‘ochi qimmatbaho material hisoblanadi.



Chilonjiyda. Chilonjiyda mevasi tarkibida o‘rtacha 25-32 %, quritilganda 63,8 % gacha shakar, 2,6- 3,4 % oqsil, 3,7 % gacha moy, 10 % gacha tannid moddasi, 250-1300 mg % gacha S vitamini, kaliy, magniy va pektin moddalari saqlab, oziq-ovqatda va tabobatda (shamollashga qarshi, immunitetni oshiruvchi, qonni suyultiruvchi, nerv sistemasini tinchlantiruvchi, yurak tomir kasalliklari, ayniqsa qon bosimiga qarshi va qon tarkibidagi xolesterin moddasini kamaytiruvchi) katta ahamiyatga ega.



Malina. Malina (xo‘jag‘at) — tomorqalarda keng tarqalgan qimmatli rezavor ekin. Uning mevasi o‘zining ajoyib mazasi va xushbo‘y hidi bilan ajralib turadi, u iste’mol qilinuvchi mahsulot sifatidagina qimmatli bo‘lmay, balki shifobaxsh hamdir. Tibbiyotda malinaning ho‘l va quritilgan mevasi terlatuvchi hamda isitmani tushiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Malinaning ho‘l mevasi murabbo, sharbat, jem, kompot, qiyom va hokazo tayyorlashda foydalaniladi. Malina gullash davrining nisbatan uzoqroq davom etishi, shuningdek yomg‘irli ob-havoda ham saqlanadigan nektar (gulshira)ga boyligi tufayli asal olinuvchi a’lo darajadagi o‘simlik tarzida ham mashhurdir.



3. DALA ChETLARIDA BOG‘ BARPO ETISH AGROTEXNIKASI

Respublikamizning dala chetlarida mevali bog‘ barpo etishda agrotexnika tadbiriy choralarining ahamiyati nihoyatda muhimdir.

Avvalo. Dala chetlarida mevali bog‘lar qanday yerlarga ekiladi, ya’ni fermaer xo‘jaliklari hududlarigami, kanallar atroflarigami, qumli yerlargami, tog‘oldi yerlargami, suv omborlari atroflarigami, yo‘l yoqalarigami, bulardan qat’iy nazar, ekin uchun rejalashtirilgan maydonlar tekislanib traktor agregatlari yuraoladigan, suv bilan sug‘orib bo‘ladigan holatga keltirilishi kerak. Ayniqsa, Dala chetlarida mevali bog‘lar barpo etishda yerga ishlov berish asosiy tadbirlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Yerga ilmiy muassasalar tavsiyasi va ilg‘or xo‘jaliklar tajribalari asosida ishlov berish tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda yordam beradi. Ekilgan daraxt ko‘chatlariningnormal rivojlanib, saqlanish hususiyatini yuqori bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, daraxt nihollarini ekish va uni parvarish qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarni boronolash, mola bostirish, qator, qator oralariga ishlov berish, sug‘orish, sho‘r yuvish kabilar amalga oshirishda tuproqning ustki qatlami zichlashib, uning fizik xususityalari, suv va issiqlik rejimi yomonlashadi. Foydali mikroorganizmlar faoliyati keskin susayadi. Bunday vaqtda yerga mahsus ishlov berish zaruriyati tug‘iladi.

Yerga ishlov berishdan asosiy maqsad tuproqning zichlangan yuqori qatlamini sifatli yumshatishdir.

Tuproqda nam to‘planishi va uzoq vaqt saqlanishi hamda o‘simliklarning oqilona foydalanishi yerga ishlov berish usuli va texnologiyasiga bog‘lik. Bu, ayniqsa, kuchli va o‘rtacha shamol esuvchi mintaqalarda katta ahamiyatga egadir.



Yerni ishlashdan asosiy maqsad begona o‘tlarni yo‘qotib, yerni shudgor holatda saqlashdir.

Yer yumshatilganda daraxtlarning so‘ruvchi yildizlari va qolgan ildiz tizimlari yaxshi rivojlanadi va tuproqdagi foydali mikroorganizmlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratiladi. Tuproq va atmosfera havosining almashinuvi tezlashadi, namlik ko‘p saqlanadi, tuproqning ozuqa tartibi yaxshilanadi, begona o‘tlar urug‘i, zararkunanda tuxumi va lichinkalari hamda turli kasallik qo‘zgatuvchi mikroorganizmlar tuproqning chuqur qatlamiga tushirib yuboriladi. Demak, o‘z vaqtida to‘g‘ri va sifatli ishlangan tuproqning unumdorligi doim oshib boradi.

Dala chetlarida mevali bog‘lar barpo etish mo‘ljallangan yerga ko‘chat ekishdan oldin ilgari har xil mashina va agregatlar ishlatilishi natijasida, shuningdek, yog‘in-sochin hamda sug‘orish natijasida ustki qismi zichlanib ketgan sug‘oriladigan yerlar qatlamini ag‘darib haydash zarur bo‘ladi. Yer ag‘darib haydalganda uning fizik xossalari yaxshilanadi, donadorligi buzilgan yuza qatlam egat tagiga tushadi, begona o‘t urug‘lari va turli kasalliklar ko‘zatuvchi zamburug‘lar tuproq ostiga ko‘mib ketadi. Yerning yuza qatlamida io‘plangan va o‘simliklar oson o‘zlashtiradigan oziqa elementlari namligi yetarli bo‘lgan chuqurroq qatlamga tushadi. Umuman daraxt ildizlari uchun zarur bo‘lgan oziq elementlar chuqur qatlamda bir tekisda taqsimlanadi.



Yer og‘darib haydalmasa, qatlamning ostki qismida havo kirmaydigan noqulay sharoit paydo bo‘lib o‘simlik uchun qiyin o‘zlashtiriladigan oziqa elementlar miqdori ortadi, ayniqsa, nitrat tuzlari kamayib, foydali mikroorganizmlar faoliyati susayadi.

Yerni qanday haydash tuproqlarni holatiga, begona o‘tlar bilan ifloslanganlik darajasiga, maqsad va sharoitga qarab belgilanadi va chuqurligi ham turlicha bo‘ladi. Masalan, och bo‘z tuproqlarning suv o‘tkazuvchanglik xususiyatiga qarab 30-35 sm, bo‘z tuproqlvrni-35-40sm, kashtan tuproqlarni 50-60sm, agar karbonot yoki gips qatlamli tuproqlar bo‘ladigan bo‘lsa 60-80 sm chuqurlikda xaydash yoki yumshatish maqsadga muvofiqdir.

Lalmi yerlarda faqat chuqur haydash yo‘li bilan kifoyalaniladi. Ko‘chatlar namgarchilik kam tushadigan lalmi yerlarda nam to‘plash uchun 50-60sm chuqurlikda haydalib ekilsa tutib ketish darajasi yuqori bo‘ladi.

Yerlar o‘ta va o‘rtacha sho‘rlangan yerlarga mevali bog‘lar rejalashtirilgan bo‘lsa bunday yerlar haydalishdan oldin tekislanishi, pal tortilib ularga suv to‘ldirilishi tuproqning sho‘ri yuvilishi va shundan keyin tuproqning turiga qarab, yuqorida aytilgandan chuqurlikda haydalishi kerak.

Kuzda ko‘chat ekiladigan yerlar kamida 25-30 sm chuqurlikda namlangan bo‘lishi kerak. Agar shu tartibga amal qilinmasa, ko‘chat tarkibidagi namlikni tuproq o‘ziga so‘rib olib, ko‘chat qurib qoladi. Shuning uchun ham kuzda ekilgan ko‘chatlarga ekilgandan keyin sug‘orilishidan qat’iy nazar, albatta, yer namligi yetarli bo‘lishi kerak.

Ekishga tayyorlangan yerlarga darhol ko‘chatlarni keltirib, ko‘mib qo‘yib, ularni qisqa muddat ichida ekishni tashkil qilish kerak. Ko‘chat ekilgandan keyin har bir tup ko‘chatning bo‘yin bo‘shligini ikki tomondan oyoq bilan bosib, havo kirmaydigan holga keltirish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari daraxt ekish vaqtida ekish mashinasidagi ikki ishchi ko‘chatni tuproqni yorg‘ich agregatga qo‘yish oldidan uni ildiz qismi tuproq tagiga yetar-yetmas holda tutib turishi ya’ni ildizi buklanib qolmasligi kerak.

Ekish davrida daraxt ekish mashinasiga juyak olg‘ich agregatlari ham tarqalgan bo‘lishi kerak. Chunki, ko‘chatlar eqilib, bo‘lgandan keyin ko‘chatlarni yaxshi tutib ketishi va normal holda rivojlanishi uchun ekish tugashi bilan orqoma-orqa sug‘orish maqsadga muvofiqdir.

Uzoq muddatda qator oralariga ishlov berish, ularning holatini yaxshi saqlash, bo‘yiga yaxshi o‘stirish uchun ko‘chatlarni 3x1-1,5m tartibi joylashtirish tavsiya etiladi.

Lalmi yerlarda yerni ekishga tayyorlash, asosan, yog‘ingarchilik miqdoriga qarab belgilanadi. Kuzda tayyorlanadigan yerga namgarchilik tushib, kamida 25-40sm chuqurlikda nam to‘plangandan keyingina ko‘chat ekish tavsiya etiladi.

Bahorda esa, yerdan qor ketishi bilan ekish taradudini ko‘rmoq va amalga oshirmoq kerak. Ekish tartibi xuddi sug‘oriladigan yerlardagi sinsgari tezkorlik bilan amalga oshiriladi.

Lalmi yerlarda mevali bog‘lar shamolning kuchli o‘rtacha esishi hisobga olingan holda joylashtiriladi. qator oralari va qataordagi daraxtlar oralig‘i yog‘ingarchilik miqdoriga qarab, 3x1, 3,5x1,5, 4x1,5x2m sxemalari joylashtirilishi kerak. Yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘lgan yerlarda qator bilan qator oralari keng qilib, yog‘ingarchilik miqdori yetarli bo‘lgan yerlarda 3x1m sxemada joylashtirish maqsadga muvofiqdir.



Kanal qirg‘oqlariga va kanal qirg‘og‘idagi kenglikka ekilgan himoya daraxtlari kanal sathidagi bo‘g‘lanishni pasaytirib qirg‘oqdagi tuproqlarni yemirilishdan muhofaza etib turadi.

Kanaldan qishloq xo‘jalik ekin maydonlari tomon yer ostidan sizib o‘tayotgan suvlarni daraxtlar ildizlari orqali so‘rib, havoga bo‘g‘latish va ularni bir me’yorda saqlab turish uchun mevali bog‘lar kanaldan 10-12 metr joyni ochiq qoldirib, 3-4 qatorli qilib barpo etish tavsiya etiladi.

Respublikamizdagi suv omborlarini, qo‘llarni, suv havzalarini suv eroziyasidan, turli yemirilishlardan, bug‘lanishdan, chang va to‘zonlardan muhofaza etish uchun ularning atroflariga mevali daraxtlardan himoya ihota daraxtzorlari barpo etilishi kerak. Barpo etiladigan himoya daraxtzorlari o‘sha suv omborlarining atrofidagi tuproq va iqlim sharoitiga qarab, 20-80 sm qatorli qilib ayrim yerlarda ularning kengligini 1000-1500 metrli etib joylashtiriladi. Shunday kenglikda himoya daraxtzorlari barpo etishda, albatta daraxt navlarining biologik xususiyatlari e’tiborga olinishi kerak.

4. DALA ChETLARIDAGI EKISh MAYDONLARI YeRINI TAYYoRLASh

Daraxt ko‘chatlarini yaxshi tutib ketishi, ularning normal holda rivojlanishini ta’minlash uchun ekishdan oldin tuproqni atroflicha o‘rganib unga qaysi tartibda ishlov berishning maqsadga muvofiq bo‘lishi aniqlanadi. Tuproqni ekishga yaxshi

tayyorlashda uning tuzilishi ya’ni suv o‘tkazuvchanligi, tuproq aeratsiyasi (havo almashuvini) yaxshi holatga keladi. O‘rmon tuproq tarkibidagi bakteriyalarga qulay sharoit yaratilib, o‘simlikning normal holda oziqlanishni ta’minlanadi. Tuproqga yaxshi ishloa berish o‘simlik uchun quyidagi qulayliklarni keltiradi.

1. Bog‘ maydonining o‘z vaqtida haydalishi, kesaksiz va yumshoq bo‘lishi daraxt ildizlari tez vaqt ichida mayda so‘ruvchi ildizlarga ega bo‘lib. qarshiliksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

2. Haydalgandan keyin tuproqning donador bo‘lishi, suv o‘tkazuvchanlik hususiyatining yaxshilanishi tufayli tuproq aeratsiyasi yaxshilanib, o‘simlik rivoji tezlashadi.

3.Tuproqning strukturali holatga keltirilishi uning tarkibidagi mikroorganizamlarning tez harakatga kelishiga imkoniyat yaratiladi va o‘simlik normal oziqlanishga ega bo‘ladi.

4. Ekiladigan maydonlar, tuprog‘ini sifatli qilib tayyorlash faqat uning strukturasini, donadorligini, suv o‘tkazuvchanligini, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilabgina qolmay, yana bir va ko‘p yillik o‘t o‘simliklarni yo‘qotishda ham xizmat qiladi.



Dala chetlariga ekilgan mevali bog‘ maydonlari yerini chuqur qilib yumshatish quyidagi qulayliklardan yaratadi:

a) tuproq turlari har xil bo‘lgan yerlarni chuqur qilib haydalishi katta ahamiyatga egadir. Tuproqlarni 35-40 santimetr chuqurlikda haydab, daraxt nihollari ekilsa daraxtlarni so‘ruvchi, atrofga tarqaluvchi va o‘q ildizlari normal holda joylashib, ularning yaxshi o‘sib rivojlanishiga imkon yaratiladi.

b) tuproqni chuqur yumshatib ekilgan yerlarda, ayniqsa, birinchi va ikkinchi yillarda daraxt nihollarining ildizlari tez rivojlanadi, uning ozuqlantiruvchi ildizlari soni 20-25 sm chuqurlikda haydalgan yerlardagi ildizlarga nisbatan 35-40 foiz ko‘p bo‘ladi, uning umumiy uzunligi va og‘irligi ham 25-40 foizgacha ortiq bo‘ladi.

v) tuproq chuqur yumshatilgan yerlarda yosh ko‘chatlar ildizlarining chuqurlikka o‘sish harakati faollashadi. Masalan, 20-25 sm. chuqurlikda yumshatilgan yerlardagi ikki yillik ko‘chatlar o‘q ildizlarining yer ostiga xarakati

o‘rtacha 35-45 sm bo‘lsa, 25-30 sm da 38-50 sm, 30-25 sm. da 40-55 sm., 35-40 sm. da 45-65 sm. chuqurlikka yetib boradi. Demak, o‘simlik ildizining umumiy og‘irligi, uzunligi, chuqurlikka harakati qanchalik ko‘p bo‘lsa, o‘simlikning tutib ketishi shoh-shabbalarining bo‘yiga, eniga rivojiga ta’siri shunchalik ko‘p bo‘ladi.

g) chuqur haydashning yana bir foydali tomonini kerak tuproqning chuqur qatlamida gips va karbonat qatlamlar bo‘lib, o‘sha qatlamlar yumshatilmasa, yoki o‘sha qatlam parchalanmasa yosh nihollarning ildizi ularni teshib o‘ta olmaydi va natijada qurib qoladi. Respublikamiz hududlarida bunday qatlamga ega bo‘lgan yerlaroz emas. Bunday yerlarga ko‘chat ekishdan oldin agrotexnik tadbiriy choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

5. DALA ChETLARIDA MEVALI BOG‘LARNI LOYIHALAShTIRISh VA JOYLAShTIRISh

Mevali bog‘larni loyihalashtirishda sug‘orish suvini yo‘naltiruvchi taqsimlovchi ariqlar, ularning joylanishi, yashil qatorlar kengligi, ish hajmi, ish turlari bo‘yicha ajratilgan maydonlar, daraxt navlari, sxematik joylashtirish, ekiladigan ko‘chatlar soni, agrotexnik tadbirlar, foydalanadigan mexanizmlar,



ketadigan xarajatlar hisobga olinadi. Shuningdek, sug‘orish shaxobchalari ya’ni taksimlovchi ariqlar turi jami yordamchi ariqlar loyihada o‘z aksini topadi.

Sug‘oriladigan maydonlarda mevali bog‘lar quyidagicha tafsiflanadi:

a) suv omborlari, suv havzalari, qo‘l qirg‘oqlariga ekiladigan mevali bog‘lar;

b) doimiy kanallarga paralel holda joylashtiriladigan mevali bog‘lar;

v) avtomobil yo‘llariga parelel joylashtiriladigan mevali bog‘lar;

g) almashtirib ekish dala atroflariga joylashtiriladigan mevali bog‘lar;

ye) sizot suvlarni o‘zida ushlab qoluvchi mevali bog‘lar;

yo) bog‘dorchilik, mevachilik, uzumchilik yerlarida himoya qilish uchun joylashtiriladigan mevali ihota daraxtzorlar;

j)davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan mahsus konlar, neftni qayta ishlash korqonalari atroflariga ekilgan halqasimon mevali bog‘lar.

Yuqorida qayd qilingan mevali bog‘lar bajaradigan vazifasiga qarab,

atroflicha hisob-kitob qilingach, loyihalashtiriladi.

O‘zbekiston respublikasi lalmikor yerlarida mevali bog‘larni barpo etish ishlarini loyihalashtirish tadbirlari sug‘oriladigan maydonlardagiga o‘xshasa ham, lekin farq qiladigan tomonlari ham yo‘q emas. Masalan, tuproq, iqlim va jug‘rofiy joylashishiga qarab, kuchli shamol esuvchi mintaqalarga mevali bog‘larni loyihalashtirishda daraxt navlarini tanlash, agrotexnika tadbirlarini hisobga olish, sug‘oriladigan yerlardagi loyihalashtirishdan tubdan farq qiladi.

Albatta, lalmikor maydonlarda ariqlar, zovurlar, kanallar, betonariqlar yo‘q. Bu yerlardagi lalmikor maydonlar tekisliklardan, uncha katta bo‘lmagan do‘ngliklardan iborat. Shuning uchun ham loyihalashtirish davrida bular inobatga olinadi.

6. KO‘ChATLARNI EKIShGA TAYYoRLASh

Olcha. Ko‘chatlarni ekishga tayyorlashda avvalo, tomorqa maydonida suvning yurishi hisobga olinib, yer yaxshi tekislanadi. Maydonning har kvadrat metriga 6–10 kg go‘ng (chirindi), 200–250 g fosfor, 100–120 g kaliy va 150–200 g ammoniyli azot o‘g‘iti solinib, chuqur (25–30 sm) haydaladi.

Olxo‘ri. Ko‘chatlarni ekishga tayyorlashda avvalo, tomorqa maydonida suvning yurishi hisobga olinib, yer yaxshi tekislanadi. Maydonning har kvadrat metriga 6–10 kg go‘ng (chirindi), 200–250 g fosfor, 100–120 g kaliy va 150–200 g ammoniyli azot o‘g‘iti solinib, chuqur (25–30 sm) haydaladi.

Bexi. Ko‘chat yekish uchun chuqurligi 65 sm, diametri 70-sm chuqurlar kavlanadi. 2-3 paqirda chirindi yoki kompost, 1 kg superfosfat, mevali daraxt o‘tinini yokishidan hosil bo‘lgan 0,1 kg kul solinadi. Kul o‘rniga 50 gramm kaliy xlor yoki 100 gramm kaliy sulfat solish mumkin.

Uzum. Uzumzorlar barpo etishdan oldin dala cheti uvatlari va zovur atroflari tanlab olinib, yerlar begona o‘tlardan tozalanadi hamda yerlar shudgor qilinib, keyin tekislanadi. Hududning tuproq-iqlim sharoitiga qarab uzum ko‘chatini ekishdan oldin yer maydoni rejalashtiriladi (*razbivka*). Rejalash davrida sug‘orish ariqlariga e’tibor berish lozim.

Bodom. Bodom ko‘chatlari kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Lekin kuzda ekish yaxshi natija beradi. Ko‘chat ekilgandan keyin ildiz bo‘g‘zining 5 – 10 sm yuqorisidan uyib ko‘miladi, keyin iloji boricha sug‘oriladi. Ko‘chatlar kurtak chiqara boshlaganda esa uyum tekislab tashlanadi.

Tut. Tut ixotazorlarini barpo qilish uchun avvalo kuchat ekish uchun tanlangan tuproq o‘rganilishi lozim. Tuproqning mexanik tarkibi, gumus miqdori, sizot suvi joylashuvi, shurlanish darajasi va boshqalar o‘rganiladi. Sharoitga

moslashgan shu yerdagi tut ko‘chatlardan o‘stirib, ko‘paytirish kerak. Ular boshqa navlarga nisbatan ancha chidamli bo‘ladi. Bu esa tut ixotazorlari tashkil qilishda juda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Terak. Terak qalamchalar yekiladigan joylar kuzda 35-40 sm chuqurlikda shudgor qilingan bo‘lishi va yekish oldidan yumshatilishi zarur. Qalamchalarni ayniqsa may-sentyabr oylarida, har oyida kamida 2-3 marta sug‘orish kerak.



Anor. Anor daraxti qurg‘oqchilikka chidamli, ammo uni suv bilan yaxshi ta’minlangan yerlardagina o‘stirish mumkin. unumdor, qumoq, bo‘z, suvni yaxshi o‘tkazadigan tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Anor sovuq shamollardan ximoyalangan va quyosh nuri qizdirib turadigan unumdor bo‘z tuproqlarda, qumoq tuproqlarda, va toshloq tuproqlarlarda yaxshi o‘sib hosil beradi.

Chilonjiyda. Urug‘lar ketmon, belkurak bilan aralashtirildi. Urug‘lar chuqurligi 60-70 sm va kengligi 80-100 sm keladigan o‘ralarda stratifikatsiyalandi. Bularga chilonjiyda urug‘lari 60-65 sm qalinlikda qumga aralashtirib solindi.


Malina. Malina ekiladigan yer 30-35 sm, chuqurlikda chopilib, 60-80 tonna go‘ng, 150-200 kg fosforli aralashtirib solinadi. Chopib chiqilgandan so‘ng tuprog‘i tekkislanadi va jo‘yak olinadi.

7. EKISh MUDDATLARI VA EKISh SXEMASI

Olcha. Olchaning ekish sxemasi – 5×5 m (sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda) va 5×4 m (shag‘alli-qumlik tuproqlarda), ekish muddati: erta bahorda – fevral oxiri–mart oyi boshlarida. Ko‘chatni ekishdan oldin tayyorlab qo‘yilgan shaltoqqa (yangi mol go‘ngi tuproq bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib, qaymoqsimon massa tayyorlanadi) botirib olinadi so‘ngra ekiladi.

Olxo‘ri. Olxo‘rining ekish sxemasi – 6×5,5×5 m (sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda) va 4×4 m (shag‘alli-qumlik tuproqlarda), ekish muddati: erta bahorda – fevral oxiri–mart oyi boshlarida. Ko‘chatni ekishdan oldin tayyorlab qo‘yilgan

shaltoqqa (yangi mol go‘ngi tuproq bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib, qaymoqsimon massa tayyorlanadi) botirib olinadi so‘ngra ekiladi.



Bexi. Behi bog‘ini tashkil qilish uchun tekis yer tanlanganligi maqul. Agar behi bog‘i tashkil qilinadigan yer adirliklardan iborat bo‘lsa, bog‘ uchun qiyalikning janubiy g‘arbi yoki janubiy sharqi bo‘lgani ma’qul. Behini chuqurlik, havo turib qoladigan yerlarga yekish mumkin yemas. Behini yekishda unga yetarli ozuqa maydoni ajratiladi. Daraxtlarning ozuqa maydoni kamida 5x5 m. yoki 6x4 m. bo‘lishi kerak.

Uzum. Dala cheti uvatlari va zovur atroflariga ko‘chatlar bir qator ekilganda ko‘chatlar orasi 2-2,5 m, shpaler usulida 3x2,5 m, 3x2 m va voish usulida 4,5x4 m hamda 4x4 m ekish sxemasida xo‘raki va kishmishbop uzum navlarini ekish maqsadga muvofiqdir. Dala cheti uvatlari va zovur atroflarida uzum ko‘chatlarini ekish chuqurligi va eni 50x50 sm qilib qaziladi. Qazish vaqtida tuproqning ustki unumdor va pastki qatlamlarii alohida kovlab olinadi.

Bodom. Bodomning yorug‘likka talabchanligini inobatga olib 60×60 sm hajmda qazilgan chuqurlarga sug‘oriladigan yerlarda 5×5 m, tog‘ va tog‘ oldi lalmikor yerlardagi dala chetlariga 4×4 m ekish sxemasida shaxmat usulida ekish tavsiya etiladi. Bodom ko‘chatlari kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Lekin kuzda ekish yaxshi natija beradi. Ko‘chat ekilgandan keyin ildiz bo‘g‘zining 5 – 10 sm yuqorisidan uyib ko‘miladi, keyin iloji boricha sug‘oriladi. Ko‘chatlar kurtak chiqara boshlaganda esa uyum tekislab tashlanadi.

Tut. Urug‘dan o‘stirilgan ko‘chatlardan tashkil qilingan buta shaklidagi tutzorlardan 3chi, 4chi va baland tanali tutzorlarning bargidan ipak qurti boqish uchun 7-8 yili foydalanish mumkin. Chunki buta tutzorga ekiladigan nihol 1 yil niholzorda va 2 yoki 3 yil yangi ekilgan joyda, baland tanali tut daraxtlari o‘stirishda esa, ko‘chat 1 yil niholzorda,2 yil ko‘chatzorda 3 yoki 4 yil baland tanali tutzorda yoki qatorlab ekilgan joyda o‘sishi zarur. Bundan tashqari urug‘idan o‘stirilgan tut daraxtining mevaga kirishi ham shunga yarasha kechikadi.

Terak. Bahor mavsumida aprel oyining 1 dekadasida (1-15 aprelgacha) bo‘yi 1,5-2,5 metrgacha bo‘lgan terak ko‘chatlarini qator oralig‘i 2,5-3,0 metr sxemada yekilishi, 1,5 metr oraliqda ariq tortilib, 70 sm oraliqda yekilishi maqsadga muvofiq. Yekilgan terak ko‘chatlariga o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlar olib borilsa, ko‘karuvchanlik darajasi 95-98 % ni tashkil yetadi.

Anor. Anor ko‘chatlari sug‘oriladigan yerlarda tuproq iqlim sharoitiga qarab 4x2, 4x3, 3x3 m sxemalarda, lalmikor yerlarda 5x4 m sxemalarda ekiladi. anor tuplarini qishda ko‘mishni ko‘zda tutgan xolda, bir tomonga qiyaroq qilib ekiladi.



Chilonjiyda. Jiyda navini yetishtirish uchun yer tanlanib, jiydaning kumushsimon navli ekiladigan ko‘chatini tanlab olinadi va birinchi yilda erta baxorda, 4m x 4m sxemada erta bahorda ekiladi. Bunda shamolni yo‘nalishini xisobga olgan xolda har qatorga bittadan ekiladi. Bir gektar maydonga 650 tup jiyda ko‘chatlari sarf bo‘ladi. Shu yilning avgust oyida kumishsimon jiyda ko‘chatlariga non jiyda, qizil qandak va cho‘li qandak navli jiydalarining payvantaklaridan olib ulanadi. Ulash quyidagi usulda amalga oshiriladi: Kumushsimon jiyda navdasini yer satxidan 20 – 25 santimer qismiga birinchi non jiydaning navdasini kurtak usulida ulanadi, ikkinchidan, navdaning qarama – qarshi tomoniiga, yer sathidan 30 – 35 santimetr qismiga qizil qandak navini kurtak usulida va uchunchidan, navdaning yer satxidan 40 – 45 santimetriga cho‘li qandak navdasini iskana usulida ulanadi. Ushbu usulda har yili kumushsimon jiyda navini yosh nixollarini peshma – pesh olib turiladi, bitta novda qoldiriladi, uch yildan keyin xosilga kiradi.

Malina. O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan yerlarga malina kuz (oktyabr-noyabr) da yoki erta baxor (mart) da ekilgani ma’qul. Kuzda ekilgan nixollar yaxshi o‘rnashib oladi va erta baxorda o‘sa boshlaydi. Malina ildiz bachkilarini (ko‘chatlar) qator oralig‘i 1.5-2 m, qatordagi oralig‘i 0.5 m, eni va chuqurligi 40 sm qilib olinadi.



8. KO‘ChATLARNI EKISh

Biologik nuqtaiy nazardan qaraganda yosh nihollarni ularning ildizlarning o‘sish davri faollashgan ildiz otish davrining boshlanish vaqtda o‘tkazish qulay fursat hisoblanadi. Shu vaqtda ildizning normal rivojlanishi uchun tuproqda havo harorati, namlik yetarli bo‘lishi kerak. Ma’lumki, daraxt ildizlarining o‘sish va rivojlanish davri kurtak yozilishdan ilgari barg holiga kelishdan oldin boshlanadi. Bu, asosan, bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Avgust va sentyabr oylarida esa ildiz o‘sishi birdaniga sekinlashishi yoki butunlay to‘xtab qolishi kuzatilgan. Oktyabr oyidan boshlab daraxt ildizlari yana o‘sish harakatiga tushadi.

Bunday o‘sish harakati bahorgi va yozgi faollardagidan farq qilib, rivojlanish jarayoni juda sekin kechadi.

Ko‘pchilik daraxt ildizlarining rivojlanishi uchun past havo harorati -5-6 darajadalik iliqlik yetarlidir.

Mevali bog‘larni bahor oylarida barpo etilsa, bu payt daraxt ildizlarining boshlang‘ich rivojlanish va kurtak yozish davriga to‘g‘ri keladi.

Bu vaqtda havo harorati va tuproq nami yetarli bo‘lib, yosh nihol ildizlarining o‘sishiga qulaylik tug‘diradi. Uning saqlanish darajasi ham kuzgi nihollarga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda respublikamiz mintaqalarida daraxt ekishni imkoniyat boricha bahor oylarida o‘tkazishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.



Kuzgi daraxt ekish respublikamizda asosan oktyabr oyning oxirgi, noyabr oyini boshlarida o‘tkazilishi kerak. Ammo bu vaqtda daraxt ildizlari ikkinchi martda jonlanib, harakatga kirgan bo‘ladi. Shuning uchun kuzda daraxt ekish vaqtini ildizlarianing o‘sish davri to‘xtagandan keyin o‘tkazishni rejalashtirish zarur.Agar yosh nihollar quruq tuproqqa ekilsa, tuproq ildizlardagi namlikni o‘ziga tortib olib, quritib qo‘yadi. Kuzda ko‘chat o‘tkaziladigan joy tuproqlari 25-30sm chuqurlikda nam bo‘lishi kerak. Shunday qilinsa o‘simlik ildizlari harakatga kelib o‘sa boshlaydi va rivojlanadi. Bu kabi talablarga rioya qilinmasa kuzgi nihollarni ekish befoyda bo‘ladi.

Shuning uchun ham ekish vaqtini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak bo‘ladi:

a) ekish vaqtini har bir mimntaqaning ob-havosi sharoitidan kelib chiqib rejalash;

b) qattiq iqlimli mintaqalarda daraxt ekish vaqtlari bahor oylarida o‘tkzailsa, uning saqlanish va o‘sish darajalari talabga javob beradi;

v) respublikamizning janubiyy va janubiy-garbiy hududlarida kuz faolida tuproq namligining uzoq muddat saqlanib turishi, havoning iliqligi, qish faslini o‘rta sovuq bo‘lmasligi kuzda ekilgan ko‘chatlarga aytarli darajada xavf tug‘dirmaydi ildizlar ham kam quriydi.

9. KO‘ChATLARNI PARVARIShLASh

Intensiv bog‘larning birinchi ekilgan yilidan boshlab daraxtlar yaxshi o‘sish kuchiga ega bo‘lib, mevali kurtaklar hosil qila boshlashi lozim. Shuning uchun yoz davomida ko‘chatlar tuproq sharoitidan kelib chiqib, 10-18 marotabagacha yaxshilab sug‘oriladi. Ko‘chatni atrofi 3-4 marotaba 10-12 sm chuqurlikda yumshatiladi. O‘suv davrida 2-3 marotaba mineral o‘g‘it bilan oziqlantiriladi. O‘g‘itlar chuqur (10-12 sm) beriladi va iloji boricha ketidan suv quyib sug‘orish yaxshi natija beradi. Har bir suvdan so‘ng suv to‘yilgan jo‘yaklarni yumshatish zarur.

O‘zbekiston sharoitida yosh pakana va yarim pakana bo‘yli bog‘larni qator orasiga 2-3 yil davomida simbag‘azli bog‘larni qator orasiga faqat ekilgan yili oraliq ekinlar ekib foydalanish mumkin, agar shunga ehtiyoj bo‘lsa.

Yosh bog‘larni qator orasiga sabzavot (karam, pomidor, bodring va b.) va kartoshka eksa bo‘ladi. Bog‘larni qator orasiga makkajo‘xori, bug‘doy va shunga o‘xshash bo‘ychang va ma’lum vaqt (pishish arafasida) suvdan cheklanuvchi ekinlar ekish yaramaydi. Chunki bular daraxtlarga soya qilib, qator orasida havoni aylanishga halaqit beradi. Pishish davrida suvdan cheklash, bug‘doy, arpa va boshqa, ko‘chatlarni kasallanish va qurishga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bog‘ ekilgan yilda chunki daraxtlarni ildiz tizimi zaif bo‘ladi va u yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi.



Bog‘ni orasidan oraliq ekinlar ekib foydalanganda judayam kechki ekinlar ekish tavsiya etilmaydi. Oraliq ekinlarni oxirgi sug‘orish muddati 15 sentyabridan kech bo‘lmasligi lozim. Undan kech bo‘lsa, ko‘chatlarni qishga tayyorlanishiga salbiy ta’sir etadi.

Ko‘chatlarni oralari o‘t bosmasligi uchun yoshiga qarab 40-80 sm kenglikda erta bahorda gerbitsidlar bilan ishlov bersa ancha samarali bo‘ladi.

Kuzda yosh bog‘larni qator orasini oktyabr oyining oxiri noyabr oyining boshlarida 22-25 sm chuqurlikda so‘ka bilan xaydaladi. Haydovdan oldin azot, fosfor va kaliy o‘g‘itlari solinsa yaxshi samara beradi. Haydalganda qator orasidagi tuproqni o‘rtaga olib haydaladi. So‘qa va traktor daraxtdan 50-60 sm yaqinroq masofaga bormasligi lozim. Chunki, undan yaqin bo‘lsa so‘qa ko‘chatni ildizini, traktor daraxtni tanasini shikastlaydi. Bunday haydovda ko‘chatni qatori traktorni chap tomonida bo‘lishi lozim.

Erta bahorda tuproq ishlovga yetilishi bilan haydalgan tuproq 15-17 sm chuqurlikda PRVN-2,5A agregati bilan qator orasiga sig‘sa (kator oralari 4 m ko‘p bo‘lganda) KZU-3 agregati bilan qator orasi chizellanadi. So‘ng ikkinchi yildan

ko‘chat oralariga maxsus agregatlar bilan ishlov bersa bo‘ladi. Qator orasini va ko‘chatlar orasini bir yo‘la ishlov berishda daraxtlarni tagini ishlov beradigan agregatlarni ishlov beradigan chuqurligi 10-12 sm tashkil qilishi lozim.

Yosh bog‘larni qator orasini oraliq ekinlar bilan band qilganda, ko‘chatni oralarini yoz davomida bir necha 3-4 marotaba qo‘lda yumshatib chiqiladi. Ekilgandan so‘ng 2-3 yillari pakana bo‘yli payvandtagda barpo qilingan bog‘lar 6-8 marotaba sug‘oriladi.

Qishlashga tayyorlanish jarayonida ko‘chatlar qurib qolmasligi uchun qator oarsi qora shudgorda ushlansa har sug‘orishdan so‘ng qator oralariga kultivator yordamida ishlov beriladi.

Zamonaviy intensiv bog‘larni qator oralari, ayniqsa simbag‘azli bog‘larda oraliq ekinlar bilan band qilinmaydi. Qator oralarini chim o‘t bilan qoplab, daraxt oralariga maxsus mexanizm bilan yoki gerbitsidlar yordamida ishlov berib, toza saqlanadi. Daraxtlar qator oralari chim o‘t bilan qoplangan bo‘lsa, ularni bo‘yi 20-25 sm yetganida maxsus texnik bilan o‘rab maydalab qator orasiga tashlab ketiladi. Kelgusida u chirib tuproq tarkibidagi chirindini miqdorini oshirishga imkon beradi.

Bir yil davomida o‘tlarni o‘sishiga qarab 2-4 marotaba o‘riladi. Oxirgi o‘rimni iloji boricha tuproq qatlamiga yaqinroq qilib (pastroq) o‘rish maqsadga muvofiqdir. Bunda zararkunanda va kasalliklar qishlash makonini iloji boricha kamaytirgan bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda daraxtlarni qator orasidagi tuproqni har xil yemirishlardan (erroziya) saqlaydi.


Ko‘chatlar hosilga kirguncha har yili ularni atrofiga mineral o‘g‘itlar beriladi. Kuzda 80-120 g fosforli, 30-40 g kaliyli va 60-70 g azotli va bahorda 70-80 g azotli o‘g‘it ta’sir etuvchi modda hisobida beriladi. Ularni daraxtni atrofini yumshatish yo‘li bilan tuproqni 7-8 sm chuqurlikka solinadi.

Ko‘chatlar hosilga kirishi bilan beriladigan o‘g‘it miqdori hosilga qarab oshib boradi. Shu bilan bir vaqtda o‘g‘it berish nisbatlari ham o‘zgaradi. Barcha mevali ko‘chatlarda meva kurtagini hosil qilish davri yozni ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu jarayonni me’yor o‘tishi uchun bir qancha jarayonlar mas’ul.



Shu bilan bir vaqtda asosiy omillardan biri ozuqa. Ozuqa bo‘lganda ham faqat azot emas, balki unga qo‘shimcha qilib fosfor va kaliy o‘g‘itini ham berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fosfor o‘g‘iti meva kurtagini hosil qilish jarayonini jadallashtirib, uni sifatli o‘tishiga ma’sul bo‘lsa, kaliy o‘g‘iti ham bu jarayonda aktiv ishtirok etib, daraxtni barcha qismlarini qishga sifatli tayyorlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Shuning uchun beriladigan fosfor va kaliy o‘g‘itigini teng yarmini yozni ikkinchi yarmida berilsa yaxshi samara beradi.

Shakl berish. O‘zbekiston sharoitida pakana payvandtagda ekilgan intensiv bog‘larda ko‘chatlarga 60 sm yuqoridan kesilib, shakl beriladi. Chetdan kelayotgan ko‘chatlarni veretino shaklida, ya’ni asosiy lider novda qoldirilib, yoniga ko‘proq novda berishga qaratilinadi, ya’ni shoxlatiladi. Shakl berishda ko‘chatning asosiy lider shoxida shtambi uchun 50 sm qoldirilib, undan yuqorisiga 8-10 dona ko‘z qoldirilib, undan so‘ng yana ship 3 dona ko‘z qoldirilib, ortiqchasi kesiladi.



Kelajakda yetarli shoxlashi uchun 50 sm tanasidan yuqorida joylashgan 3 dona ko‘z oysimon shaklida (ko‘chat ko‘chatxonasida shoxlamagan bo‘lsa) ko‘zni o‘sishi qismidan kerbovka (kesish) qilinadi va yana uchta ko‘z tashlab yana uchta ko‘z to‘g‘ri chiziq shaklida kerbovka qilinadi (rasm). Bu jarayonni ko‘chat yaxshi o‘sa boshlagan davrida qilsa yaxshi natija beradi. Shoxlangan shoxlar iyul-avgust oylarida 90° egiladi va bog‘lanadi. Yosh o‘sgan novdalarda meva kurtaklarini hosil qilish maqsadida ular ma’lum vaqtida chilpib (chekanka) turiladi. Bu usul meva kurtaklarini ko‘proq hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

10. O‘G‘ITLASh

Olcha. Olcha daraxtlariga sof holda 300–350 g azotli, 250–300 g fosforli va 200–250 g kaliyli o‘g‘itlar solinishi tavsiya qilinadi.

Olxo‘ri. Olxo‘ri daraxtlariga sof holda 300–350 g azotli, 250–300 g fosforli va 200–250 g kaliyli o‘g‘itlar solinishi tavsiya qilinadi. Har 2–3 yilda o‘rtacha 50–60 kg chirigan go‘ng solish hosildorlikni oshiradi.

Bexi. Behi unumdorligi yuqori yerlarda o‘suv davri mobaynida 4–6 marta, shag‘alli yerlarda 10–12 marta sug‘oriladi. Behizor tuprog‘ida namlik dala nam sig‘imiga nisbatan yozning birinchi yarmida 75-80 foiz, yozning ikkinchi yarmida 65-70 foiz bo‘lishi talab yetiladi. Sug‘orishda tuproqning 80-100 sm qatlami to‘liq namlanishi kerak.

Uzum. Dala chetlaridagi tok tuplariga erta bahorda (tok tuplarini ochish vaqtida) har yili har bir tup hisobiga 120–160 g ammofos, 120–150 g ammiakli selitra va 150–200 g kaliy tuzlari hisobidan mineral o‘g‘itlar solish tavsiya etiladi.



Bodom. Lalmikor yerlarda o‘g‘itlashni o‘z vaqtida amalga oshirishga e’tibor berish zarurdir. Ko‘chatlarni yaxshi tutishi va o‘sishini ta’minlash maqsadida birinchi yili har bir ko‘chatning atrofiga 4-6 kg organik o‘g‘it va 60-80 g ammofos solish yaxshi natija beradi.

O‘sish darajasi sust yosh bog‘larga hosilga to‘liq kirguncha 1m^2 grammdan kaliy va 4-5 kg dan organik o‘g‘it solish tavsiya qilinadi. Organik va mineral o‘g‘itlar birgalikda solinsa o‘g‘it miqdori 1,5-2 barobar kamaytiriladi.

Tut. Tut daraxtini o‘gitlash uchun yillik miqdori 10 t go‘ng + 60 kg azotli + 60 kg fosforli o‘g‘it, go‘ng bo‘lmaganda 120-180 kg azotli + 60 kg fosforli o‘g‘it sarflanadi. Mineral o‘g‘itlar yaxshilab maydalanib traktorga o‘rnatilgan o‘g‘itlagichda nihollar qatoridan 8,0-10 sm o‘zoqlikda egat ichiga 10-15 sm chuqurlikda solinadi. O‘g‘it solingan nihollar tezda qondirib sug‘oriladi, aks xolda solingan o‘g‘itlarni ma’lum qismi havoga uchib ketadi.

Chilonjiyda. Chilonjiyda daraxtini o‘g‘itlashda tuproqqa solingan yirik shoxli qoramollar go‘ngining 1 tonna moddasi bilan 20 kg azot; 10 kg fosfor; 24 kg kaliy(K_2O); 28 kg kalsiy (CaO); 6 kg magniy (MgO); 4 kg oltingugrt; 25 g bor; 230g marganes, 20g mis, 100g rux, 2g molibden, 1,2g kobalt, 0,4g yod elementlari tushadi.

Anor. Yosh anor bog‘larga mineral o‘g‘itlardan gektariga 60 kg azot, 60 kg fosfor, 30 kg kaliy sof xolda, 20 tonna go‘ng solinadi. Hosil beradigan mevali anor bog‘larga mineral o‘g‘itlar gektariga 140-150 kg azot, 135 kg fosfor, 60 kg kaliy sof xolda hamda 25-30 tonna go‘ng solinadi.

Malina. Go‘ng, fosforli va kaliyli o‘g‘itlar kuzda yer ag‘darilib chopilayotgan paytida. Azotli o‘g‘itlar baxorda yer chopilayotganda solinadi. Organik o‘g‘itlarni tuproqning xosildorligiga qarab xar yili yoki yil oralatib solinadi. Mineral o‘g‘itlar (50-60 g. superfosfat, 10 g. Kaliy tuzi, 15-20 g.ammiak selitrasi).

11. SUG‘ORISh

Olcha. O‘sish davomida mobaynida bo‘z tuproqlarda shpanka daraxtlari 4–6 marta, shag‘alli yerlarda 8–10 marotaba sug‘oriladi. Birinchi o‘sish davrida sug‘orish muddati tuproq, ob-havo, shuningdek, qishki suv berishga bog‘liq bo‘lib, may-iyun oyida o‘tkazilishi mumkin.

Olxo‘ri. O‘sish davomida mobaynida bo‘z tuproqlarda olxo‘ri daraxtlari 4–6 marta, shag‘alli yerlarda 10–12 marotaba sug‘oriladi. Birinchi o‘sish davrida sug‘orish muddati tuproq, ob-havo, shuningdek, qishki suv berishga bog‘liq bo‘lib, may-iyun oyida o‘tkazilishi mumkin.

Bexi. Behi unumdorligi yuqori yerlarda o‘suv davri mobaynida 4–6 marta, shag‘alli yerlarda 10–12 marta sug‘oriladi. Behizor tuprog‘ida namlik dala nam sig‘imiga nisbatan yozning birinchi yarmida 75-80 foiz, yozning ikkinchi yarmida 65-70 foiz bo‘lishi talab yetiladi. Sug‘orishda tuproqning 80-100 sm qatlami to‘liq namlanishi kerak. Yosh ko‘chatlarni tez-tez sug‘orib turiladi.



Uzum. Yosh tokzorlar o‘suv davrida 9-10 martagacha (aprelda, may, iyunda 2 martadan, iyulda 2-3 marta, avgustda 2 marta) sug‘oriladi. Hosilga kirgandan so‘ng uzumzorlarda aprel oyi gullashdan 5-10 kun oldin, gullashdan keyin (iyun oyining o‘rtalari), g‘o‘ralar jadal rivojlanayotgan davrda (iyulda kechpishar navlar) sug‘oriladi. Og‘ir soz tuproqlarda o‘sish davrida bir marotaba

sug‘orish gektariga 700- 800 m^3/ga, yengil qumoq, shuningdek, toshloq tuproqlarda 400-500 m^3/ga ni tashkil etadi.

Bodom. Bodom o‘suv (vegetatsiya) davrida ular kamida 6-8 marotaba sug‘oriladi. Aprel, may, iyun va sentyabr oylarida kamida bir marotabadan, iyul, avgust oylarida esa 2-3 marotabadan sug‘oriladi. Qumoq – shag‘alli yerlarga ekilgan ko‘chatlar nisbatan ko‘proq sug‘orilishni talab qiladi. Ko‘chatlar atrofi har suvdan so‘ng yaxshilab yumshatiladi. Yoz oylarida suv kamchil bo‘ladigan xududlarda qishda 1-2 yaxob suvi berish ham tavsiya qilinadi.

Tut. Yosh maysalarning dastlabki o‘suv davrida namlikka ehtiyoji katta bo‘ladi. Nihollar qiyg‘os unib chiqguncha, pushtalarning ustini nam xolatda saqlash kerak. Buning uchun urug‘lar ko‘karib chiqganidan, ularda 2-3 barg paydo bo‘lguncha har 3-4 kunda, 5-6 barg chiqarguncha har 4-6 kunda. 7-8 barg ko‘ringuncha har 6-8 kunda hamda o‘suv davrining ikkinchi yarmidan boshlab har 10-12 kunda sug‘oriladi. Nihol sovuq tushish vaqtigacha yaxshi pishib ulgurishi uchun, avgust oxiri yoki sentyabr boshida sug‘orish to‘xtatiladi.

Terak. Terak qalamchalarini ayniqsa may-sentyabr oylarida, har oyida kamida 2-3 marta sug‘orish kerak. Ko‘chatlar va qalamchalar birinchi va ikkinchi yil tuproq tarkibi va yer osti suvlarining sathiga qarab 8-12 martagacha sug‘oriladi. Sug‘orishlar oralig‘i iyun-avgust oylarida 15 kundan oshmasligi kerak. Sug‘orish me’yori o‘rtacha 700-800 m3/ga. Sug‘orish tuproqni yumshatish bilan birga olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Anor. Xosilga kirgan anor o‘suv davrida 9-10 marta sug‘oriladi. Sug‘orish normasi gektariga 800-900 m^3, anor tuplari qishda oson bo‘lishi uchun o‘suv davrida bostirib sug‘oriladi. Shoxlar mog‘orlamasligi uchun qishda sug‘orilmaydi, lekin qish juda quruq kelganida bir – ikki marta gektariga 1500-2000 m^3 me’yorida sug‘oriladi. Anor yosh ko‘chatlari o‘tqazilganda so‘ng dastlabki yili vegetatsiya davri davomida 10-12 marta (gektariga 600-700 m^3 xisobida) sug‘oriladi. Anorzorlar uchun tuproqning namligi dala nam sig‘imiga nisbatan 75-80 foiz bo‘lishi kerak.


Chilonjiyda. Chilonjiyda ko‘chati suvga talabchan bo‘ladi, ildiz vegetativ apparatni hosil qilishda ko‘chat ko‘p suv sarflaydi, tuproqni sernam bo‘lishini talab yetadi, kurtak payvand qilingan ko‘chatlar vegetatsiya davrida ikki marta sharbat bilan sug‘orildi – bir sug‘orishda go‘ng berish normasi 10 t/ga. O‘suv davrida jami ko‘chat 7 marta sug‘oriladi, 1 sug‘orishda 600 m^3 suv berildi.

Malina. Malina vegetatsiyasi davrida xar bir kvadrat metr yerga 10-12 litr xisobida 12-15 martagacha sug‘oriladi. O‘simlikni chidamli qilish uchun sug‘orish sentyabrgacha to‘xtatiladi.

Tomchilatib sug‘orish. Zamonaviy intensiv bog‘larda tomchilatib sug‘orish

tizimi asosida ko‘chatda deyarli suv bilan bog‘lik stress holati bo‘lmaydi. Chunki tuproqda namlik darajasi ildiz atrofida bir xil bo‘ladi. Shuning uchun ham daraxtlarda o‘sish va rivojlanish darajasi bir tekisda o‘tadi. Tomchilatib sug‘orishda naychalarni va tomchilatgichlarni to‘g‘ri joylashtirishga katta e’tibor berish lozim.

Томчилатиб суғориш тизимининг архитектуравий-ишлаб чиқариш концепцияси



Tomchilatgichlarni turi va joylashishiga qarab, sug‘orish vaqti va normasi belgilanadi. Tomchilatib sug‘organda tuproq bir tekis namlanadi va ildiz namdan foydalanish darajasi oddiy usulga qaraganda (jo‘yak) ancha yuqori bo‘ladi. Shu barobarida tuproqdagi o‘g‘itlardan foydalanish ham unumli bo‘ladi va bu yerdagi mikroorganizmlarni ish faoliyati yuqori va samarali bo‘ladi.

Tomchilatib sug‘orilganda 40% suv tejaladi. Tomchilatish sistemasi orqali barcha mineral o‘g‘itlarni eritmasini yuborib, o‘simlikni oziqlan-tirish mumkin. Bunda mineral o‘g‘it sarfi kamayib, uni o‘zlashtirish darajasi ortadi va suv bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy iste’molchi bo‘lgan ildizga boradi. O‘g‘itni o‘zlashtirish foizi maksimal yuqori bo‘ladi. O‘g‘it suv bilan birga tuproqqa singib ketishi hisobiga tashqi ta’sirga (quyosh nuri, shamol va hozako) deyarli uchramaydi.

Tomchilatib sug‘organda tuproq namlanadigan xususdda daraxtni asosiy ildizi shakllanadi. Shuni hisobga olgan holda mevali bog‘larni tashkil qilish bilan bir vaqtda sug‘orish tizimini ham ishga tushirish lozim. Shunda ildiz tomchilatish tizimiga muonan shakllanadi.

Yoshi katta bog‘larga tomchilatib sug‘orish tizimini o‘rnatganda, ularni shu davrda ildizini joylashgan hududiga suvni tekis yetkazib berishni ta’min etish lozim. Aks holda ma’lum qismi ildiz suvdan va u bilan birga yuborilyayotgan ozuqadan bebaxri bo‘lib qoladi. Bu o‘simlikni rivojiga va hosiliga keskin ta’sir etadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda tomchilatib sug‘orish ham qo‘llaniladi. Bu usulni

turlari juda ko‘p va o‘ziga xos samarasi ham bor. Lekin shu bilan bir qatorda bizlarni sharoitimizga to‘g‘ri kelmaydi, kamchiliklari ham bor.

O‘simliklar suvni va shu bilan bir vaqtda ozuqani ham kun botmasdan so‘ng, aniqrog‘i soat 22-02 gacha yaxshi o‘zlashtiradi.

MUNDARIJA.

KIRISh.

1. HUDUDLARNING TUPROQ-IQLIM ShAROITLARI VA ULARGA MOS EKISh TAVSIYa ETILADIGAN MEVALI DARAXT TURLARINING MANSUBLIGI.....6

2. DALA ChETLARIGA EKIShGA TAVSIYa ETILADIGAN MEVALI DARAXTLAR.....11

3. DALA ChETLARIDA BOG‘ BARPO ETISh AGROTEXNIKASI.....17

4. DALA ChETLARIDAGI EKISh MAYDONLARI YeRINI TAYYoRLASh.....20

5. DALA ChETLARIDA MEVALI BOG‘LARNI LOYIHALAShTIRISh VA JOYLAShTIRISh.....22

6. KO‘ChATLARNI EKIShGA TAYYoRLASh.....23

7. EKISh MUDDATLARI VA EKISh SXEMASI..... 24

8. KO‘ChATLARNI EKISh.....27

9. KO‘ChATLARNI PARVARIShLASh.....28

10. O‘G‘ITLASh.....31

11. SO‘G‘ORISh. 33